

# PRESS- RELIZ

---

**1 CHORAK  
2026**

# MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	<b>3</b>
BIRJA SAVDOLARI	<b>4</b>
Birja savdolari sharhi	<b>5</b>
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	<b>6</b>
Birja kotirovkalash varag'ining tuzilmasi	<b>7</b>
Tarmoqlar tarkibi	<b>8</b>
AKSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI	<b>11</b>
Aksiyalar bozoridagi savdolarning sharhi	<b>12</b>
Main Board bo'yicha Top-10 aksiyalar	<b>13</b>
Bozor narxlaridagi o'zgarish	<b>14</b>
Emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi	<b>15</b>
UCI indeksi	<b>16</b>
OBLIGATSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI	<b>18</b>
Obligatsiya bozori savdosi sharhi	<b>19</b>
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI	<b>21</b>
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASIDAGI SAVDOLAR YAKUNI	<b>22</b>
LTSM savdolari sharhi	<b>23</b>
LTSMda "Main Board" bo'yicha Top-10 aksiyalar	<b>25</b>
Narxlar o'zgarishi	<b>26</b>
DISKLEYMER	<b>28</b>



**TOSHKENT**

RESPUBLIKA FOND BIRJASI

## SAVDO YAKUNLARI

**207 890**

*Bitimlar soni*

**2 651,02 mlrd so'm**

*Savdolar hajmi*

**79,15 mlrd**

*Savdoda ishtirok etgan  
qimmatli qog'ozlar*

**59 kun**

*Savdo kunlari*

**271**

*Savdo qilingan  
instrumentlar soni*

**229**

*Savdoda ishtirok etgan  
emitentlar soni*

**1 CHORAK  
2026**



**TOSHKENT**  
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

---

**BIRJA  
SAVDOLARI**


# BIRJA SAVDOLARI SHARHI

2026-yilning 1-choragi yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati 2,06 trillion so'm (168,96 million AQSH dollar) bo'lgan 175 193 ta bitim ro'yxatga olingan. Ushbu bitimlarda 74 ta emitentning 15,88 mlrd dona qimmatli qog'ozlari ishtirok etdi.



2026-yilning 1-choragida tuzilgan bitimlar hajmi va sonini 2025-yilning shu davri bilan solishtirganda, ularning sezilarli darajada oshgani kuzatiladi. Ushbu davrda bitimlar soni 53,26 foizga, hajmi esa 37,25 foizga oshgan.

Eng yuqori savdo faolligi fevral oyida kuzatilib, uning hajmi 1,45 trln so'mga yetdi. Ushbu oyda savdo hajmining asosiy qismi "Main Board" asosiy savdo maydonchasining "Bond Market" obligatsiyalar bozoriga to'g'ri keldi: 1,42 trln so'm yoki umumiy hajmning 97,98 foizini tashkil etdi.


## 2026-YILNING 3 OYIDAGI BITIMLAR SONI VA HAJMI (MLRD SO'M)




Eng yirik bitimlar 3-fevral kuni qayd etilib, ularning hajmi 1,01 trln so'mga yetdi. Eng kam hajm esa 1-yanvar kuni 439,17 mln so'mni tashkil etdi.



### SAVDOLAR SONI



### SAVDOLAR HAJMI, MLRD SO'M



## BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

“Stock Market” aksiyalar bozorining asosiy savdo maydonchasi hisoblangan G1 - “Main Board” seksiyasida 2026-yilning 1-choragida 61 ta emitent aksiyalari bo'yicha umumiy qiymati 65,91 mlrd so'mlik 169 261 ta bitim amalga oshirildi.

N°	Savdo tizimi bo'limlari	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi (so'm)
<b>I.</b>	<b>«Stock Market»:</b>	<b>64</b>	<b>169 269</b>	<b>15 878 753 130</b>	<b>264 381 117 574,40</b>
1.	G1 - «Main Board»	61	169 261	12 417 204 815	65 908 551 761,01
2.	T1 - «Nego Board»	7	8	3 461 548 315	198 472 565 813,39
<b>II.</b>	<b>«Bond Market»</b>	<b>9</b>	<b>5 922</b>	<b>995 851</b>	<b>1 799 191 376 265,96</b>
1.	G1 - «Main Board»	9	5 922	995 851	1 799 191 376 265,96
<b>III.</b>	<b>«Repo Market»</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>14</b>	<b>952 903,52</b>
1.	R1-«Repo Nego Board»	1	2	14	952 903,52
	<b>Jami</b>	<b>73</b>	<b>175 193</b>	<b>15 879 748 995</b>	<b>2 063 573 446 743,86</b>

“Stock Market” aksiyalar bozorining TI - “Nego Board” seksiyasida muzokaralar auksioni rejimida chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar umumiy sonining kamida 1 foiziga teng paketlar bilan bitimlar tuzildi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda 7 ta emitent aksiyalari bo‘yicha umumiy qiymati 198,47 mlrd so‘mlik 8 ta bitim qayd etildi. Bu ko‘rsatkich aksiyalar bilan tuzilgan bitimlar umumiy hajmining 75,07 foizini tashkil etdi.

“Repo Nego Board” savdo maydonchasida “AGAT CREDIT” AJ obligatsiyalari bo‘yicha umumiy qiymati 952,90 ming so‘mlik 2 ta bitim tuzildi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorida hisobot davrida faqat G1 - “Main Board” platformasida jami 1,80 trln so‘mlik 5 922 ta bitim tuzilib, bu umumiy hajmning 87,19 foizini tashkil etdi.

## **BIRJA KOTIROVKALASH VARAG‘INING TUZILMASI**

2026-yilning birinchi choragi yakuniga ko‘ra, “Toshkent” RFBning birja kotirovkalash varag‘ida 94 ta emitentning 151 ta instrumenti, jumladan 83 ta oddiy aksiya, 38 ta imtiyozli aksiya va 30 ta obligatsiya mavjud edi. Hisobot davrida birja kotirovkalash varag‘iga 6 ta emitentning 6 ta obligatsiyasi kiritildi.


Shu bilan birga, monitoring natijalariga ko‘ra, “Toshneftgazqurilish” AJ /TGZK/ va “Yangiqo‘rg‘on paxta tozalash” AJ /YAPT/ aksiyalari, shuningdek, 2 ta obligatsiya /IFMT3 va ACMT1B/ so‘ndirilishi munosabati munosabati bilan birja kotirovkalash varag‘idan chiqarildi.

Birja kotirovkalash varag‘ida aksiyalar emitentlari to‘rt toifaga bo‘linadi:

- “Premium” toifasi — 1 ta emitent: “O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJ (URTS);
- “Standart” toifasi — 56 ta instrument;
- “Xususiyashtirish” toifasi — 28 ta instrument;
- “Tranzit” toifasi — 36 ta instrument.


## LISTING TOIFALARI BO‘YICHA SAVDO NATIJALARI

SAVDOLAR SONI



■ Premium
 ■ Standart

SAVDOLAR HAJMI, MLRD SO‘M



■ Xususiylashtirish
 ■ Tranzit


“Stock Market” aksiyalar bozorida eng yuqori hajm va bitimlar soni “Standart” segmentiga to‘g‘ri keldi: 235,14 mlrd so‘m va 139 902 ta bitim. Eng past hajm “Xususiylashtirish” segmentida qayd etilib, 992,04 mln so‘mlik 12 310 ta bitim tashkil etdi.

Eng kam bitimlar soni “Tranzit” segmentida kuzatilib, 9,60 mlrd so‘mlik 4 715 ta bitim tuzildi. “Premium” toifasida bitta emitent — “O‘zRTXB” AJ taqdim etilgan bo‘lib, ushbu segmentda jami 18,65 mlrd so‘mlik 12 342 ta bitim amalga oshirildi.

## TARMOQLAR TARKIBI


Hisobot davrida birja savdolari iqtisodiyotning 14 ta turli tarmoqlariga mansub emitentlar qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha amalga oshirildi.

## TARMOQLAR KESIMIDA TUZILGAN BITIMLAR SONI



Eng ko'p bitimlar bank va sug'urta sohasi hissasiga to'g'ri keldi. Xususan, bank sohasi emitentlari qimmatli qog'ozlari bo'yicha 81 363 ta bitim tuzilib, bu jami birja bitimlarining 46,44 foizini tashkil etdi.

## TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR HAJMI, %



Birja bitimlari umumiy hajmining 58,76 foizi bank sektori qimmatli qog'ozlari hissasiga to'g'ri keldi. Ushbu tarmoq emitentlari qimmatli qog'ozlari bo'yicha tuzilgan bitimlar hajmi 1,21 trln so'mni tashkil etdi.

Boshqa tarmoqlar emitentlari qimmatli qog'ozlari bo'yicha bitimlar hajmi 439,92 mlrd so'mga yetib, bu umumiy birja hajmining 21,32 foizini tashkil qildi.

Eng past hajm farmatsevtika va lizing sohalarida qayd etilib, mos ravishda 81,08 mln so'm va 5,46 mln so'mni tashkil etdi.

Tarmoqlar	Savdolar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Savdo hajmi (so'm)
<b>Banklar</b>	<b>81 363</b>	<b>5 106 009 401</b>	<b>1 212 576 216 329,44</b>
Boshqalar	12 384	2 445 325	439 919 919 416,87
Moliyaviy xizmatlar	5 901	992 198	377 886 849 714,71
Aloqa	5 693	2 163 376	13 935 461 948,54
Sanoat	20 110	2 334 497	11 339 465 406,14
Transport	3 958	874 906	3 337 635 943,88
Sug'urta	24 250	10 379 348 500	1 404 633 058,79
Ko'chmas mulk	9 283	384 529 020	1 190 309 727,97
Qurilish	508	663 622	973 670 506,96
Energetika	8 699	335 558	560 471 450,22
Mashinasozlik	1 076	6 980	278 880 217,82
Agrosanoat	727	28 837	83 391 515,60
Farmatsevtika	998	14 736	81 082 111,43
Lizing	243	2 039	5 459 395,49
<b>Jami</b>	<b>175 193</b>	<b>15 879 748 995</b>	<b>2 063 573 446 743,86</b>

## AKSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI

**169 269**  
*Bitimlar soni*

**264,38 mlrd so'm**  
*Savdolar hajmi*

**15,88 mlrd**

*Savdoda ishtirok etgan  
qimmatli qog'ozlar*

**59 kun**

*Savdo kunlari*

**85**

*Savdo qilingan  
instrumentlar soni*

**64**

*Savdoda ishtirok etgan  
emitentlar soni*

## AKSIYALAR BOZORIDAGI SAVDOLARNING SHARHI

Eng katta hajm mart oyida qayd etilib, 220,31 mlrd so'mni yoki "Stock Market" bozorida bitimlar umumiy hajmining 83,33 foizini tashkil qildi. Maksimal hajm 24-mart kuni kuzatilib, shu kuni bitimlar hajmi 190,46 mlrd so'mni tashkil etdi.


Eng past hajm esa 6-mart kuni 235,16 mln so'm miqdorida qayd etildi.

Eng ko'p bitimlar soni 19-yanvar kuni qayd etilib, 5 170 tani tashkil etdi. Eng kam bitimlar soni esa 3-fevral kuni 1 017 tani tashkil qildi.


2026-yilning 1-choragida "Stock Market" aksiyalar bozorining barcha platformalarida o'rtacha kunlik bitimlar soni 2 869 tani, o'rtacha kunlik bitimlar hajmi 4,48 mlrd so'mni hamda o'rtacha kunlik savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar soni 269,13 mln donani tashkil etdi.

Hisobot davrida "Stock Market" aksiyalar bozorida birja savdolarining umumiy hajmi 264,38 mlrd so'mni (21,70 mln AQSH dollar) tashkil etib, umumiy birja savdolari hajmining 12,81 foiziga teng bo'ldi.


### BITIMLAR SONI



### Q.Q. SONI, MLN DONA




### SAVDO HAJMI, MLRD SO'M



# MAIN BOARD BO'YICHA TOP-10 AKSIYALAR


G1 - "Main Board" asosiy savdo seksiyasida "Stock Market" aksiyalar bozorida bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top 10 aksiyalar.

## BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP 10



Eng ko'p bitimlar "Hamkorbank" ATB /HMKB/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 13 662 tani tashkil qildi. Keyingi o'rinlarda 12 406 va 12 342 ta bitim bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATB / SQBN / hamda "O'zRTXB" AJ / URTS / aksiyalari egalladi. Top-10 ro'yxatini "Kapital sug'urta" AJ / KASUP / imtiyozli aksiyalari va "O'zmetkombinat" AJ / UZMK / oddiy aksiyalari yakunlab, ular bo'yicha mos ravishda 6 578 va 6 181 ta bitim qayd etildi.

## SAVDO HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Bitimlarning eng katta hajmi "O'zRTXB" AJ /URTS/ oddiy aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 18 648,59 mln so'mni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda "O'zbektelekom" AJ /UZTL/ va "O'zsanoatqurilishbank" ATB /SQBN/ aksiyalari bo'yicha mos ravishda 13 778,46 mln va 13 273,04 mln so'mlik bitimlar tuzildi.

Top-10 ro'yxatini "Qizilqumsement" AJ /QZSM/ — 691,89 mln so'm va "Aloqabank" ATB /ALKB/ — 509,38 mln so'm ko'rsatkichlari bilan yakunlandi. Top-10 aksiyalari bo'yicha savdolarning umumiy hajmi 60,55 mlrd so'mni tashkil etib, bu "Stock Market" aksiyalar bozorining G1 "Main Board" asosiy maydonchasidagi bitimlar umumiy hajmining 91,86 foiziga teng bo'ldi.











## BOZOR NARXLARIDAGI O'ZGARISH

2025-yil oxiridagi aksiyalar yopilish narxlari 2026-yilning birinchi choragi yakunidagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslaganda, eng likvidli qimmatli qog'ozlarning top-10 ro'yxatiga kiruvchi barcha emitentlar bo'yicha barqaror o'sish kuzatildi. Bu esa fond bozorining ijobiy dinamika shakllanayotganidan dalolat beradi.

Eng sezilarli o'sish rentabellik darajasi 100 foizdan oshgan yetakchilar guruhida qayd etildi: "Ipoteka-bank" ATIB /IPTB/ aksiyalari **▲202,38 foizga**, "O'zsanoatqurilishbank" ATB /SQBN/ aksiyalari **▲195,62 foizga**, "Kvarts" AJ /KVTS/ aksiyalari esa **▲172,73 foizga** o'sdi. Shuningdek, ushbu guruhga "O'zmetkombinat" AJ /UZMK/ (**▲105,86%**) va "Qizilqumsement" AJ /QZSM/ (**▲96,06%**) ham qo'shildi va ikki baravarga yaqin o'sishni ko'rsatdi.

Qolgan emitentlar nisbatdan pastroq, ammo barqaror o'sish dinamikasini ko'rsatdi: **▲13,41 foizdan ▲42,31 foizgacha**, shu jumladan "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJ /CBSK/ (**+42,31%**) va "Hamkorbank" ATB /HMKB/ (**+30,70%**), "O'zRTXB" AJ /URTS/, "Olmaliq KMK" AJ /AGMKP/ va "Uzbekinvest" AJ /UZINP/ **13–23 foiz** oralig'ida o'sish qayd etdi.


## ENG YUQORI LIKVIDLI 10 TA QIMMATLI QOG'OZNING BOZOR NARXLARIDAGI O'ZGARISHI

Tiker	Emitent nomi	30.12.2025 yildagi yopilish narxi	31.03.2026 yildagi yopilish narxi	Narxlar o'zgarishi	Yopilish narxi dinamikasi
<b>IPTB</b>	"Ipoteka-bank" ATIB	1,26	3,81	<b>202,38%</b>	
<b>SQBN</b>	"O'zsanoatqurilishbank" ATB	10,97	32,43	<b>195,62%</b>	
<b>KVTS</b>	"Kvarts" AJ	990	2 700,00	<b>172,73%</b>	
<b>UZMK</b>	"O'zmetkombinat" AJ	2 999,99	6 175,88	<b>105,86%</b>	
<b>QZSM</b>	"Qizilqumsement" AJ	760	1 490,02	<b>96,06%</b>	
<b>CBSK</b>	"Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJ	2,6	3,7	<b>42,31%</b>	
<b>HMKB</b>	"Hamkorbank" ATB	43	56,2	<b>30,70%</b>	
<b>URTS</b>	"O'zRTXB" AJ	6 249,99	7 675,00	<b>22,80%</b>	
<b>AGMKP</b>	"Olmaliq KMK" AJ	8 500,00	10 300,00	<b>21,18%</b>	
<b>UZINP</b>	"Uzbekinvest" AJ	1 499,00	1 699,99	<b>13,41%</b>	

## BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'IGA KIRITILGAN EMITENTLARNING UMUMIY BOZOR KAPITALLASHUVI

Ko'rib chiqilayotgan davrda (2026-yil yanvar-mart) birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan aksiyalar emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi ijobiy dinamikani namoyon etib, davr boshidagi 285,21 trillion so'mdan 2026-yil 31-mart holatiga 339,94 trillion so'mga yetdi, bu esa **▲19,19%ga** o'sishga mos keldi.

## BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'IGA KIRITILGAN EMITENTLARNING UMUMIY BOZOR KAPITALLASHUVI



Ushbu davrda bozor kapitallashuvining eng yuqori darajasi - 353,43 trillion so'm 2026-yil 17-martda qayd etilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati esa 7-yanvarga to'g'ri kelib, emitentlarning umumiy kapitallashuvi 275,45 trln so'mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, listingdagi aksiyalar emitentlari soni nisbatan barqaror bo'lib qoldi: yanvar oyi boshida bu ko'rsatkich 85 tani tashkil etdi, so'ngra 83 tagacha pasaydi va chorak oxirigacha ushbu darajada saqlanib qoldi, bu esa sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yo'qligini ko'rsatadi.

## UCI INDEKSI

O'zbekiston kompozit indeksi (bundan buyon UCI) "Toshkent" Respublika fond birjasi holatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan ko'rsatkich bo'lib, birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilgan barcha aksiyalar emitentlarining bozor holatini ifodalaydi

UCI indeksini hisoblash metodikasi quyidagicha:


- **surat** — kotirovkalash varag'iga kiritilgan barcha aksiyalarning joriy sanadagi bozor kapitallashuvini ifodalaydi;
- **maxraj** — indeks yaratilgan sanadagi barcha aksiyalarning umumiy bozor kapitallashuvini ifodalaydi.

UCI indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Index_{UCI} = \frac{\text{Market Cap current date}}{\text{Market Cap base date}} * \text{Base index}$$

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 19,80 foizga oshib, 891,40 punkt darajasida yakunlandi.

## UCI INDEKSINING O'ZGARISH GRAFIGI



Maksimal qiymat 17-mart kuni qayd etilib, 926,82 punktga yetdi.

Indeksning minimal qiymati 7-yanvarda qayd etilib, 722,14 punktni tashkil etgan.

# OBLIGATSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI

**5 924**

*Bitimlar soni*

**1 799,19 mlrd so'm**

*Savdolar hajmi*

**995 865**

*Savdoda ishtirok etgan  
qimmatli qog'ozlar*

**59 kun**

*Savdo kunlari*

**21**

*Savdo qilingan  
instrumentlar soni*

**9**


*Savdoda ishtirok etgan  
emitentlar soni*

# OBLIGATSIYA BOZORI SAVDOSI SHARHI


Hisobot davri oxirida "Bond Market" obligatsiyalar bozorida "Main Board" savdo maydonchasida 9 ta emitentning 995 851 ta obligatsiyasi bilan jami 1,80 trln so'mlik 5 922 ta bitim tuzildi.

Shuningdek "Repo Nego Board" savdo maydonchasida umumiy hajmi 952,90 ming so'm bo'lgan 2 ta bitim tuzildi.

## SAVDOLAR SONI



## SAVDOLAR HAJMI, MLRD SO'M




Bitimlar hajmi bo'yicha qarz qimmatli qog'ozlar bozorida eng katta savdo hajmi "Asakabank" AJ /ASAK4B5/ obligatsiyalariga to'g'ri keldi: 1,00 trln so'm. Bu ko'rsatkich "Bond Market" asosiy maydonchasida obligatsiyalar bo'yicha tuzilgan bitimlar umumiy hajmining 55,58 foizini tashkil etdi. Savdolarida ushbu emitentning 2 000 dona obligatsiyasi ishtirok etib, har birining narxi 500,00 mln so'mni tashkil qildi.

Eng ko'p bitimlar "AGAT CREDIT" MCHJ /ACMT1B/ obligatsiyalari bo'yicha qayd etilib, 1 657 tani tashkil etdi. Shuningdek, ACMT2B4 obligatsiyalari bo'yicha 1 389 ta bitim tuzildi. Ularning hajmi mos ravishda 3,86 mlrd so'm va 40,41 mlrd so'mni tashkil etdi. Obligatsiyalarning bozor qiymati 2025-yil 31-dekabr holatiga nisbatan 1,62 trln so'mga yoki 65,96 foizga oshib, 4,08 trln so'mni (333,92 mln AQSH dollari) tashkil qildi. Obligatsiyalar instrumentlari soni 30 taga yetdi.

## EMITENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN TUZILGAN BITIMLAR HAJMI VA SONI

Emitent	Savdolar soni	Q.Q. soni	Savdolar hajmi, so'm
AGAT CREDIT	3 845	484 923	48 777 593 111
ASIA ALLIANCE BANK	1	40	40 000 000
BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI	906	126 331	12 768 998 340
CONTACT FINANCE	920	72 123	7 227 915 541
IMKON FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI	170	3 774	3 776 646 127
MAKESENSE	21	1 627	421 265 479 455
MIKROFINANCE ORGANIZATION DELTA	55	5 047	5 335 696 597
MORTGAGE REFINANCING COMPANY OF UZBEKISTAN	5	300 000	300 000 000 000
ASAKABANK	1	2 000	1 000 000 000 000
<b>Jami</b>	<b>5 924</b>	<b>995 865</b>	<b>1 799 192 329 169</b>

## OBLIGATSIYALAR KARTASI



# LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI



**TOSHKENT**  
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

**I-CHORAK  
2026**

## LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASIDAGI SAVDOLAR YAKUNI

**32 697**  
*Bitimlar soni*

**587,44 mlrd so'm**  
*Savdolar hajmi*

**63,27 mlrd**  
*Savdoda ishtirok etgan  
qimmatli qog'ozlar*

**59 kun**  
*Savdo kunlari*

**166**  
*Savdo qilingan  
instrumentlar soni*

**156**  
*Savdoda ishtirok etgan  
emitentlar soni*

# LTSM SAVDOLARI SHARHI

Hisobot davrida "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonchasida umumiy qiymati 587,44 mlrd so'm (48,18 mln dollar) bo'lgan 32 697 ta bitim tuzildi. Bitimlar 156 ta emitentning 63,27 mlrd dona qimmatli qog'ozi bo'yicha amalga oshirildi.


Kunlik kesimda eng ko'p bitimlar soni 10-martda - 911 ta; eng kam bitimlar soni esa 3-fevralda - 68 tani tashkil etdi.

Eng yirik bitimlar hajmi 30-yanvar kuni qayd etilib, ushbu kunda bitimlar hajmi 242,73 mlrd so'mni tashkil etdi. O'rtacha kunlik bitimlar soni 554 tani, o'rtacha kunlik bitimlar hajmi esa 9,96 mlrd so'mni tashkil qildi.


"SME Stock" aksiyalar bozorining "Main Board" listingdan tashqari savdo maydonchasida o'rtacha kunlik bitimlar hajmi 420,75 mln so'mga teng bo'ldi. Shuningdek, "SME Stock" aksiyalari bozorining "Nego Board" platformasida 162,37 mlrd so'mlik 24 ta bitim tuzildi.

## SAVDO HAJMI, MLRD SO'M

Milliard



## SAVDOLAR SONI



“FoP Board” platformasida 400,00 mlrd soʻmlik 2 ta bitim tuzilib, bu jami bitimlar hajmining 68,09 foizini tashkil qildi.


“SME Bond” obligatsiyalar bozorining “Main Board” listingdan tashqari savdo maydonchasida umumiy qiymati 250,00 mln soʻmlik 7 ta bitim tuzildi.

Nº	Savdo maydonchasi	Emitent	Savdolar soni	Q.Q. soni	Bitimlar hajmi, soʻm
<b>I.</b>	<b>«SME Stock»:</b>	<b>155</b>	<b>32 690</b>	<b>63 267 750 231</b>	<b>587 192 217 585,34</b>
1.	G1 - «Main Board»	147	32 664	442 692 173	24 824 188 733,19
2.	T1 - «Nego Board»	10	24	62 425 058 058	162 368 028 852,15
3.	NC - «FoP Board»	1	2	400 000 000	400 000 000 000,00
<b>II.</b>	<b>«SME Bond»</b>	<b>1</b>	<b>7</b>	<b>250</b>	<b>250 000 000,00</b>
1.	G1 - «Main Board»	1	7	250	250 000 000,00
<b>Jami</b>		<b>156</b>	<b>32 697</b>	<b>63 267 750 481</b>	<b>587 442 217 585,34</b>

# LTSM DA "MAIN BOARD" BO'YICHA TOP-10 AKSIYALAR

"SME Stock" aksiyalar bozorida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha G1 - "Main Board" maydonchasida top-10 aksiyalar.

## BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10 QIMMATLI QOG'OZLAR




Eng ko'p bitimlar "O'zsanoateksport" AJ /OSNE/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 4 853 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni "PRESTIGE INSURANCE" AJ /OHMS/ va "Regional electric power networks" AJ /OHETP/ aksiyalari joylashib, ular bo'yicha mos ravishda 2 019 va 1 548 ta bitim qayd etildi. Top-10 ro'yxatini "TURKISTON" AJ hamda "YANGIYO'L YOG'-MOY" AJ aksiyalari yakunlab, ular bo'yicha mos ravishda 1 039 va 1 035 ta bitim tuzildi.

Bitimlarning eng katta hajmi "DIGITAL BUSINESS AGREGATOR" AJ /ORBA/ oddiy aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 20,35 mlrd so'mni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda "EUROASIA INSURANCE" AJ /OEIN/ va "Matbuot tarqatuvchi" AJ /OMTQ/ bo'lib, ular bo'yicha mos ravishda 2,38 mlrd va 268,56 mln so'mlik bitimlar amalga oshirildi. Top-10 ro'yxatini umumiy hajmi 74,57 mln so'm bo'lgan "Naqlgazmaxsusqurilish" AJ /ONGM/ aksiyalari yakunladi.


Shu bilan birga, "Main Board" platformasida savdo qilingan Top-10 emitentlar bo'yicha umumiy hajm 23,85 mlrd so'mni tashkil etib, bu aksiyalar bozorida umumiy savdo hajmining 96,06 foiziga teng bo'ldi.

## BITIMLAR HAJMI BO'YICHA TOP 10 TA QIMMATLI QOG'OZ, MLRD SO'M



## NARXLAR O'ZGARISHI

### ENG LIKVIDLI\* QIMMATLI QOG'OZLAR NARXLARINING O'ZGARISHI\*\*



\* 30.12.2025 va 31.03.2026 kunlaridagi yopilish narxlari taqqoslanadi

\*\* Eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida bitimlar soni bo'yicha top 10 ta aksiya olingan

2025-yil 30-dekabr va 2026-yil 31-mart kunlaridagi aksiyalar yopilish narxlari taqqoslaganda, eng likvidli qimmatli qog'ozlar orasida oltita emitentning aksiyalari **▲ 1,16** foizdan **▲ 111,24** foizgacha bo'lgan oraliqda o'sishni ko'rsatdi. Narxlarning eng sezilarli o'sishi /OKSKP/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 266,99 so'mdan 564,00 so'mgacha (**▲ 111,24%**), shuningdek /OHMS/ aksiyalari 9,78 so'mdan 12,40 so'mgacha (**▲ 26,79%**) oshdi. /OKUM/, /UZPT/ va /OKSK/ aksiyalari ham mos ravishda 394,00 so'mdan 459,99 so'mgacha (**▲ 16,75%**), 309,99 so'mdan 359,01 so'mgacha (**▲ 15,81%**) va 80,00 so'mdan 92,56 so'mgacha (**▲ 15,70%**) oshdi. /OHETP/ aksiyalari bo'yicha biroz o'sish kuzatilib, narx 2 834,00 so'mdan 2 866,99 so'mgacha (**▲ 1,16%**) ko'tarilgan.

Shu bilan birga, to'rtta emitentning aksiyalari narxining pasayishi kuzatildi. Narxlarning eng katta pasayishi 1 599,00 so'mdan 937,95 so'mgacha (**▼ 41,34%**) pasaygan /OTKS/ aksiyalari bo'yicha kuzatilgan bo'lsa, /OEIG/, /OSNE/ va /OYGY/ aksiyalari mos ravishda 1 005,00 so'mdan 980,00 so'mgacha (**▼ 2,49%**), 0,29 so'mdan 0,28 so'mgacha (**▼ 3,45%**) va 677,00 so'mdan 629,99 so'mgacha (**▼ 6,94%**) pasaygan.

---

## DISKLEYMER

---

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

**Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:**

**E-mail:** analytics@uzse.uz

**Tel.:** +998 555 100 300